

**INGLIZ TILI O'QITISHDA TALABALAR MOTIVATSIYASINI
RIVOJLANTIRISH NUQTAI NAZARIDAN JORIY O'QUV DASTURLAR
VA MATERIALLAR TAHLILI**

Koshayeva Sansabila Kamiljanovna

Nukus davlat pedagogika instituti doktranti

koshayovasansabila@gmail.com

Nomutaxassislik yo'nalish talabalariga ingliz tiling o'qitish bo'yicha amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari va materiallarining tahlili tadqiqotimiz oldidagi vazifalardan hisoblanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga ingliz tili o'qitishda darslar samaradorligini belgilab beruvchi motivatsiya masalasining jarayondagi o'rnini o'rganishdan iborat.

Nomutaxassislik yo'nalish talabalariga ingliz tili o'qitish mazmunini tahlil qilishda quyidagi tamoyillar belgilandi:

1. Nomutaxassislik OTMlarining o'quv dastur, reja va o'quv materiallarining belgilangan talablarga mosligi.
2. O'qitish mazmunida nomutaxassislik yo'nalish talabalarining ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish maqsadini amalga oshirishning inobatga olinganligi.
3. Taqdim etilayotgan o'quv materiallarida talabalar motivatsion jihatining inobatga olinganligi.

Lekin ta'kidlab o'tish joizki, o'quv yili, kursi va o'quv bosqichi boshidagi talabalarga xos – o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yoki qiziqishni har doim ham motivatsiya deb bo'lmaydi. Bu ko'proq yangi o'quv bosqichga bo'lgan qiziqish bo'lib, uni bilishga yo'naltirilgan motivga aylantirish uchun shart-sharoit va sa'y-harakatlar talab etiladi. Muallifning o'zi to'xtalganidek, motivatsion ta'minot o'quvchilarda chet tilini o'zlashtirish jarayonining o'ziga bo'lgan ijobiy emotsional

munosabatni shakllantirish bilan amalga oshiriladi, bu o'qitishning boshidan oxirigacha bo'lgan jarayonni qamrashi lozim.

Ma'lumki, motivatsiyaning qay darajada bo'lishi ko'p holda o'qitishning tashkillashtirilishiga bog'liq. Chet tillarga o'qitish metodikasi psixologiya, pedagogika, psixolingvistika va qator boshqa fanlardan kelib chiqib, turli tegishli yondashuv, o'qitish vositalariga ega. O'quv motivatsiyasi haqida so'z yuritilganda, ayni shu yondashuv va vositalarni o'qitish mazmunida tutgan o'rni haqida alohida eslatish joiz. Agar foydalanilgan vositalar o'qitish mazmunini tasniflash va tashkillashtirishda ko'zlangan maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lmasa, o'qitilayotgan til hodisasini anglash va unga bog'liq xatti-harakatni amalga oshirishni taqozo etmasa, talabalarda tilga nisbatan salbiy munosabatni (dimotivatsiya) paydo bo'lishiga olib kelishi muqarrar. Aksincha, agar foydalaniladigan yondashuv va vositalar jarayonda hamda talabalarning o'zlariga xos xususiyatlar natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engib o'tishga, to'siqlarni bartaraf etilishiga xizmat qilsa, didaktik jarayonga ijobiy munosabatning yuzaga kelishi kuzatiladi.

Belgilangan tajriba-sinov maydonlari talabalariga ingliz tilini o'qitish bo'yicha joriy dastur, o'quv materiallari hamda metodik ishlanmalarning predmetli jihati tahlili shuni ko'rsatadiki, ishchi dastur, o'quv-uslubiy majmualar va modul' papkalari Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur va davlat ta'lim standartlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Lekin tadqiqotimiz eksperimental maydoni deb belgilab olingan OTMlarning har biri qo'shimcha adabiyot va o'quv materiallari tanlashda turli manbalarga murojaat etishgan.

O'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa nomutaxassislik oliy ta'lim muassasalarida darsliklar talabalarning kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida baholanmaydi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nomutaxassislik OTMlari bakalavriat talabalariga xorijiy tillarni o'qitish uchun taqdim etilgan namunaviy o'quv dasturida asosiy o'quv adabiyoti sifatida "Scale Up" o'quv adabiyotlar majmuasining 1-2-3-kurs darsliklari, tegishli ta'lim kurslari uchun belgilab berilgan.

Hozirgi zamon talablariga ko'ra, nomutaxassislik yo'nalish talabalari boshqa davlatlar qonunchilik tizimi va qonunchilik faoliyati tajribalarini qiyosiy o'rganishlari talab etiladi. Shu bois, talabalarga kasbiy, kundalik, madaniy va ijtimoiy-siyosiy muloqot turlaridan tashqari ilmiy muloqotga doir kommunikativ ko'nikma va malakalarni o'rgatish muhimdir.

Nomutaxassislik yo'nalish talablarining ilmiy muloqot turlariga, ularning kurs ishi, diplom ishi tayyorlashi, hujjatlar tahlili haqida taqdimotlar yaratishi, ilmiy mavzular yuzasidan ma'ruzalar qilishi, tegishli yozma hujjatlar, ilmiy ishlar va maqolalarni o'qib tushunishi hamda ilmiy faoliyat yuritishga doir ko'nikma va malakalarini keltirishimiz mumkin.

O'qitishning predmetli mazmuni sifatida muloqot doirasi hamda tanlangan mavzular tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorijiy til fani dasturidan quyidagi turdagi nutqiy mavzularni ajratib olishimiz mumkin: ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, ta'lim, internet va axborot texnologiyalariga oid, mutaxassislik sohasiga oid mavzular. Yuqorida aytib o'tilgan to'rtta makrosfera va nutqiy mavzular o'zaro mos kelmoqda. Akademik muloqot turi esa "Ta'lim mavzulari" rukniga kiritilganligi

taxminiy mavzular safida keltirilgan “... ma’ruza, maqola, tezis va ilmiy ishlar yozish, o‘qish va o‘rganish strategiyalari” kabi izohlar bilan tasdiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Самыгин С. И. Психология и педагогика для студентов вузов / С. И. Самыгин, М. А. Гулиев, Р. Х. Ганиева. – 4-е изд. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 248 с. 66.
2. Семиченко В. А. Психология творчества: учебное пособие / П. А. Просецкий, В. А. Семиченко. – Москва: Прометей, 1989. – 82 с.
3. Колкер Л. М. Практическая методика обучения иностранному языку / Л. М. Колкер, Е. С. Устинова, Т. М. Еналиева. – Москва: Академия, 2001. – 256 с.